



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12



ТОШКЕНТ-2024

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF LAW RESEARCH

№12 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9130-2024-12>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:

Abdurasulova Qumriniso Raimqulovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:

Fayziev Shoxrud Farmonovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

12.00.01 - ДАВЛАТ ВА ҲУҚУҚ НАЗАРИЯСИ ВА ТАРИХИ. ҲУҚУҚИЙ ТАЪЛИМОТЛАР ТАРИХИ / ТЕОРИЯ ПРАВА И ГОСУДАРСТВА, ИСТОРИЯ ПРАВОВЫХ УЧЕНИЙ / THEORY OF LAW AND STATE, HISTORY OF LEGAL DOCTRINES

Boboyev Halimboy Boboyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ahmedshaeva Mavlyuda Axatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Adilxodjayeva Surayyo Maxkamovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Sattorov Abdug'affor
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Artur Gambaryan
yuridik fanlar doktori, professor (Armaniston)
Yosuke Shamoto
yuridik fanlar doktori, professor (Yaponiya)

12.00.02 - КОНСТИТУЦИОННИЙ ҲУҚУҚ, МАЪМУРИЙ ҲУҚУҚ, МОЛИЯ ВА БОЖХОНА ҲУҚУҚИ / КОНСТИТУЦИОННОЕ ПРАВО; АДМИНИСТРАТИВНОЕ ПРАВО; ФИНАНСОВОЕ ПРАВО / CONSTITUTIONAL LAW; ADMINISTRATIVE LAW; FINANCIAL RIGHT

Malikova Gulchexra
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xusanov Ozod Tillabayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Selimanova Svetlana Mixaylovna
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)

Xvan Leonid Borisovich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Peshkova Xristina Vyacheslavovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
Sung Un Lee
yuridik fanlar doktori, professor (Janubiy Koreya)

12.00.03 - ФУҚАРОЛИК ҲУҚУҚИ. ТАДБИРКОРЛИК ҲУҚУҚИ. ОИЛА ҲУҚУҚИ. ХАЛҚАРО ХУСУСИЙ ҲУҚУҚ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО; ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО; СЕМЕЙНОЕ ПРАВО; МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО / CIVIL LAW; BUSINESS LAW; FAMILY LAW; PRIVATE INTERNATIONAL LAW

Oqyulov Omonboy
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ro'zinazarov Shuhrat Nuraliyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ruziyev Rustam Jabborovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Borotov Mirodiljon Xomudjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Toshev Boboqul Norqobilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Shomuxamedova Zamira Shoislamovna
yuridik fanlar doktori, (O'zbekiston)
Ahmad Issa Altweissi
yuridik fanlar doktori, professor (Iordaniya)

12.00.04 - ФУҚАРОЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ХЎЖАЛИК ПРОЦЕССУАЛ ҲУҚУҚИ. ҲАҚАМЛИК ЖАРАЁНИ ВА МЕДИАЦИЯ / ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; ХОЗЯЙСТВЕННОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО; АРБИТРАЖНЫЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ / CIVIL PROCEDURE LAW; ECONOMIC PROCEDURAL LAW; ARBITRATION PROCESS AND MEDIATION

Esanova Zamira Normurodovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mamasidiqov Muzaffar Musajonovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jason A.
Kanton Federal sud markazi (AQSH)

12.00.05 - МЕҲНАТ ҲУҚУҚИ. ИЖТИМОИЙ ТАЪМИНОТ ҲУҚУҚИ / ТРУДОВОЕ ПРАВО; ПРАВО СОЦИАЛЬНОГО ОБЕСПЕЧЕНИЯ / THE LABOR LAW; SOCIAL SECURITY LAW

Usmanova Muborak Akmalxanovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Gasanov Mixail Yuriyevich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Sattorova Gulnoza Djurakulovna
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Murodova Gulnora
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)
Denisov Gleb
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Fayziyev Shuxrat Xasanovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Usmonov Muhammadi Bahridinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Xolmuminov Juma
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Jo'rayev Yuldash Achilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Skripnikov Nikolay Kuzmich
yuridik fanlar doktori, dotsent (O'zbekiston)

Po'latov Baxtiyor Xalilovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salomov Baxrom Salomovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Salayev Nodirbek Saparbayevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Osmonaliev Qayrat
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Aleksey Kibalnik
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Kudryavtsev Vladislav Leonidovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Sergey Shoshin
yuridik fanlar doktori, dotsent (Rossiya)
James B.
Eaglin Federal sud markazi (AQSH)

Rustambayev Mirzayusup Hakimovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Zufarov Rustam Axmedovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Kabulov Rustam
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Rajabova Mavjuda Abdullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Taxirov Farxod
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Hamidov Nurmuhammad Orif o'g'li
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (O'zbekiston)
Yuldoshev Rifat Raxmadjonovich
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Djansarayeva Rima Ernatovna
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Yelena Antonyan Aleksandrovna
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Matthew Light
yuridik fanlar doktori, professor (Kanada)


Inog'omjonova Zumratxon Fatxullayevna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Pulatov Yuriy Safiyevich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
To'laganova Gulchehra Zaxitovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Muxiddinov Faxriddin Muxiddinovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Mirzov Davron Miragzamovich
yuridik fanlar doktori (O'zbekiston)
Rijakov Aleksandr Petrovich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)

Stoyko Nikolay Genadyevich
yuridik fanlar doktori, professor (Rossiya)
Iskandarov Zayniddin
yuridik fanlar doktori, professor (Tojikiston)
Sergey Pen
yuridik fanlar doktori, professor (Qozog'iston)
Aleksey Purs
yuridik fanlar doktori, dotsent (Belarus)
Jurgen Maurer
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)
Kevin Curtin
yuridik fanlar doktori, professor (AQSH)

Ismoilov Bahodir Islamovich
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Matkarimova Gulchehra Abdusamatovna
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)

Yuldasheva Govverjan
yuridik fanlar doktori, professor (O'zbekiston)
Alexander Trunk
yuridik fanlar doktori, professor (Germaniya)

1. Xidoyatov Parvizbek Istamovich EKSPERIMENTAL TARTIBGA SOLISHNING HUQUQIY TABIATI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	5
2. Ubaydullayev Abror Qutpilla o'g'li XIX-XX ASRLARDA ISLOM HUQUQIDA MOLIYA INSTITUTINING RIVOJLANISHIGA TA'SIR KO'RSATGAN SIYOSIY-HUQUQIY JARAYONLAR.....	12
3. Хамдамова Фируза Уразалиевна ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ ПОЛИТИКИ И ТЕНДЕНЦИИ РАЗВИТИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ.....	23
4. Шорахимов Хусан Муроджон ўғли ҚУРИЛИШ СОҲАСИДА ДАВЛАТ НАЗОРАТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ МАСАЛАЛАРИ.....	32
5. Abdullayev Jamshid Djamilovich TIBBIY XIZMAT KO'RSATISH BO'YICHA AYRIM SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	41
6. Воснев Жамшид Мустафоевич ИНСОННИНГ БИОМЕХАНИК ЎЗГАРИШИДА ШАФФОФЛИК ВА ЖАВОБГАРЛИКНИ ОШИРИШ УЧУН РАҚАМЛИ ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ МАСАЛАЛАРИ.....	49
7. Ашурова Нилуфар Ўктамовна ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ҲИМОЯСИ: ЖИНОЯТЛАР ТУРЛАРИ ВА УЛАРГА НИСБАТАН ЖАВОБГАРЛИК.....	63
8. Давлетмуратов Султанмурат Рустемович АЙРИМ ХОРИЖИЙ ДАВЛАТЛАРДА МЕҲНАТНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ УЧУН ЖИНОЙИ ЖАВОБГАРЛИК: ҚИЁСИЙ-ҲУҚУҚИЙ ТАҲЛИЛ.....	75
9. Хайдаров Шухратжон Джумаевич ХАВФ ОСТИДА ҚОЛДИРИШ ЖИНОЯТИНИ КВАЛИФИКАЦИЯ ҚИЛИШ ВА ЎХШАШ ЖИНОЯТЛАРДАН ФАРҚЛАШ МАСАЛАЛАРИ.....	82
10. Иброхимов Бахтиёр Тойиржонович ПРОКУРОРНИНГ ЖИНОЯТ ИШИ КЎЗГАТИШ БОСҚИЧИДА ФУҚАРОЛАРНИНГ ҲУҚУҚ ВА ЭРКИНЛИКЛАРИНИ ҲИМОЯ ҚИЛИШ ФАОЛИЯТИНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ.....	90
11. Ширинкулов Бахтиёр Ифтихор ўғли ҚУРИЛИШДА МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ҚОИДАЛАРИНИ БУЗИШ: СУБЪЕКТ ВА ЖАБРАНУВЧИ ХУСУСИЯТЛАРИ.....	99
12. Xaydarov Mirsaid Mirjabborovich KUCHLI TA'SIR QILUVCHI YOKI ZAHARLI MODDALARNI QONUNGA XILOF RAVISHDA MUOMALAGA KIRITISHGA QARSHI KURASHISHNING AYRIM JIHATLARI.....	107




12.00.03-ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

Abdullayev Jamshid Djamilovich,
 “Adliya a’lochisi”, Yuridik fanlar bo’yicha falsafa doktori (PhD)
 E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

TIBBIY XIZMAT KO’RSATISH BO’YICHA AYRIM SHARTNOMAVIY MUNOSABATLARNI FUQAROLIK HUQUQIY TARTIBGA SOLISHNI TAKOMILLASHTIRISH

For citation: Abdullaev Jamshid Djamilovich. IMPROVEMENT OF THE CIVIL LEGAL REGULATION OF SOME CONTRACTUAL RELATIONS ON THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES. Journal of Law Research. 2024, 9 vol., issue 12, pp. 41-48

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14259914>

ANNOTATSIYA

Maqolada tibbiy xizmat ko’rsatish bo’yicha ayrim (jigar transplantatsiyasi, yurakni stentlash, inson organ va to’qimalarining transplantatsiyasi, sun’iy urug’lantirish, buyrak transplantatsiyasi) shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, tibbiy xizmat ko’rsatish shartnomalarining rivojlangan mamlakatlar kundalik tibbiy shartnomaviy amaliyotida barqaror rivojlanish masalalari, shartnoma huquqi jihatidan fuqarolik huquqiy xususiyatlarini takomillashtirish hamda jahon mamlakatlarining mazkur masalada tajribasi va nazariy bilimlariga oid ma’lumotlar yoritilgan.

Kalit so’zlar: buyrak yetishmovchiligi, gemodializ muolajasi, inson a’zolari va to’qimalarining transplantatsiyasi, tibbiy xizmat ko’rsatish shartnomasining xususiyati, sog’liqni saqlash sohasida xususiy sektor, xalq tabobati, “Support to effective resilient and inclusive governance system for health” (Samarali, barqaror va inklyuziv rivojlanishga ko’maklashish Sog’liqni saqlashni boshqarish tizimlari), 2002-yil 15-noyabrda Rimda qabul qilingan “Bemorlarning huquqlari bo’yicha Evropa Xartiyasi”.

Абдуллаев Джамшид Джамилевич,
 «Отличник юстиции», Доктор философии по юридических наук (PhD),
 E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ГРАЖДАНСКО-ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ НЕКОТОРЫХ ДОГОВОРНЫХ ОТНОШЕНИЙ ПО ОКАЗАНИЮ МЕДИЦИНСКИХ УСЛУГ

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются вопросы совершенствования гражданско-правового регулирования некоторых договорных отношений при оказании медицинских услуг (трансплантация печени,

стентирование сердца, трансплантация органов и тканей человека, искусственное оплодотворение, трансплантация почки). Также освещены вопросы устойчивого развития договоров оказания медицинских услуг в повседневной медицинской договорной практике развитых стран, совершенствования гражданско-правовых особенностей с точки зрения договорного права, а также информация об опыте и теоретических знаниях стран мира в этом вопросе.

Ключевые слова: Почечная недостаточность, лечение гемодиализом, трансплантация органов и тканей человека, характер контракта на медицинские услуги, частный сектор в сфере здравоохранения, народная медицина, «Поддержка эффективной устойчивой и инклюзивной системы управления здравоохранением» (Самарали, содействие устойчивому и инклюзивное развитие систем управления здравоохранением), «Европейская хартия прав пациентов», принятая в Риме 15 ноября 2002 г..

Abdullaev Jamshid Djamilovich,

Doctor of Philosophy (PhD) in Law, “Excellence in Justice”

E-mail: jamshidb003fb@gmail.com

IMPROVEMENT OF THE CIVIL LEGAL REGULATION OF SOME CONTRACTUAL RELATIONS ON THE PROVISION OF MEDICAL SERVICES

ANNOTATION

The article analyzes the issues of improving the civil legal regulation of some contractual relations in the provision of medical services (liver transplantation, heart stenting, transplantation of human organs and tissues, artificial insemination, kidney transplantation). Also, the issues of sustainable development of medical service contracts in the daily medical contractual practice of developed countries, improvement of civil legal features in terms of contract law, and information on the experience and theoretical knowledge of the world countries in this matter are covered.

Keywords: kidney failure, hemodialysis treatment, transplantation of human organs and tissues, the nature of the medical service contract, the private sector in the health sector, folk medicine, "Support to effective resilient and inclusive governance system for health" (Promoting sustainable and inclusive development Health Management Systems), "European Charter of Patients' Rights", adopted in Rome on November 15, 2002.

Ilm-fanning ravnaq topishi, tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq munosabatlar ko‘lamining ortishi, sohaga xususiy tibbiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi subyektlar salmog‘ining jadal suratda ko‘payishi fuqarolik huquqida shakl va ko‘rinish jihatdan tibbiy xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq shartnomaviy munosabatlarni vujudga keltirmoqda. Ayni paytda ilmiy-texnika va raqamli texnologiya rivojlanishi bilan o‘tgan asrda kundalik tibbiy amaliyotda ilojsizdek tuyulgan jigar transplantatsiyasi, yurakni stentlash, inson organ va to‘qimalarining transplantatsiyasi, sun‘iy urug‘lantirish, buyrak transplantatsiyasi kabi tibbiy xizmat ko‘rsatish usullari xorijiy mamlakatlarda hamda mamlakatimizda ko‘payib bormoqda. Xususan, 2023-yilda Sog‘liqni saqlash resurslari va xizmatlarini boshqarish (HRSA) Organ Donorligi Statistikasi transplantatsiya masalasida “Milliy transplantatsiya kutish ro‘yxatidagi erkaklar, ayollar va bolalar soni – 103,223 nafar; har kuni organ transplantatsiyasini kutib o‘lishlar soni – 17 nafar; 2023 yilda 46,000 nafar + transplantatsiya amalga oshirilgan”[1]ligini, stomatologik tibbiy xizmat ko‘rsatish borasida statistika “Og‘iz bo‘shlig‘i kasalliklari butun dunyo bo‘ylab qariyb 3,5 milliard odam mavjud, JSST (WHO) hisob-kitoblariga ko‘ra bu taxminan 2 milliard kattalar doimiy tishlarida, 514 million bolalarda esa birlamchi (chaqaloq) tishlari bo‘shlig‘i paydo bo‘lishi”[2], yurtimizda “O‘zbekistonda 3 mingga yaqin bemor buyrak yetishmovchiligi yuzasidan gemodializ muolajasiga ehtiyoj sezishi”[3] ta’kidlanadi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaviy munosabatlar ayrim davlatlarda fuqarolik huquqiy tartibga solingan bo‘lishiga qaramay, possovet davlatlarda kundalik tibbiy amaliyotda uchrashiga qaramay

umumiy asoslarda huquqiy tartibga solinganligi tufayli mazkur institutni takomillashtirish, “de-yure” qilinishi zaruriyati dolzarb hisoblanadi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solish istiqbollari xususida muayyan ilmiy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu sohada tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalarni tuzish, o'zgartirish va bekor qilish tartibi xususida, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarida taraflarning o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarmasligining oqibatlarini va mazkur munosabatlarda javobgarlik masalalari, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma subyektlari huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini takomillashtirish, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomalarining tashkiliy huquqiy asoslarini mustahkamlashga oid muammolarning ilmiy-amaliy yechimini topish masalasida tahlillar qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Mamlakatimizda fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy huquq erkinliklarini himoya qilish, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarini rivojlantirish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida “350 ming nafar diabet va 1,5 million yurak-qon tomir kasalligi bor bemorlarni davolash bilan to'liq qamrab olish, tibbiy yordamga muhtoj aholining 70 foiz murojaatlarini birlamchi bo'g'inning o'zida hal etishga erishish, respublikada gemodializ o'rin joylari bilan bemorlarni to'liq qamrab olish”[4] va boshqa tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq munosabatlarning huquqiy asoslarini ishlab chiqish kabi dolzarb maqsadlar ta'kidlangan. Ilm-fan, jumladan raqamli texnologiyalarning rivojlanishi bilan tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish xususida ilmiy izlanishlar zaruriyati mavjud.

O'zbekiston Respublikasining 1997-yil 1-martda qabul qilingan Fuqarolik kodeksi, 1996-yil 29-avgustda qabul qilingan “Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida” [5]gi, 2019-yil 11-martda qabul qilingan “Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida” [6]gi, 2022-yil 11-mayda qabul qilingan “Inson a'zolari va to'qimalarining transplantatsiyasi to'g'risida”gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 iyulda qabul qilingan “O'zbekiston Respublikasi aholisiga nefrologiya va gemodializ yordami ko'rsatish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”[7]gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrda qabul qilingan PF-158-sonli “O'zbekiston – 2030” strategiyasi to'g'risidagi Farmoni va sohaga oid boshqa qonun hujjatlarida mazkur mavzuga oid masalalar uchun huquqiy yechim berilgan.

O'zbekiston Respublikasida tibbiy xizmat ko'rsatishga oid munosabatlar umumiy asoslarda yoki ma'lum darajada X.R.Rahmonqulov, Sh.N.Ro'zinazarov, I.B.Zokirov, R.J.Ro'ziyev, O.Okyulov, M.X.Rahmonqulov, D.Sh.Asyanov, I.Anortoyev, S.Boboqulov, K.O.Sindorov, V.R.Topildiyev, M.Sh.Choriyev, N.F.Imomov, M.S.Boltayev, N.E.Gofurova, N.I.Askarov, J.T.Askarov va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan. Xususan, yirik sivilist-olimlar, akademik X.R.Rahmonqulov, professorlar I.B.Zokirov, R.J.Ro'ziyev, O.Oqyulov, Sh.Ro'zinazarovlar mazkur turdagi shartnomalar mavjudligi nuqtayi nazaridan, professor M.Sh.Choriyev shartnoma xususiyati doirasida, M.S.Boltayev tibbiy sug'urta faoliyatini fuqarolik-huquqiy tartibga solish masalasida, N.E.Gofurova sog'liqqa bo'lgan huquqni ta'minlashning xalqaro huquqiy asoslari, N.I.Askarov nomlanmagan shartnomalar kesimida, tadqiqotchi J.T.Askarov tibbiy xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik subyektlari faoliyatini huquqiy tartibga solish tasnifi kesimida ilmiy-nazariy izlanishlarni amalga oshirishgan.

MDH mamlakatlari huquqshunos olimlari O.E.Жамкова, E.E.Васильева, Э.М.Алсынбаева, Н.Е.Бодяк, О.В.Горбунова, Р.Р.Сафин, А.А.Останин, Л.В.Высоцкая, Н.А.Баринов, Н.В.Косолапова, М.П.Малеина, М.В. Болотина va boshqa tadqiqotchi olimlar tomonidan tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarini shartnomaviy huquqiy tartibga solish masalalari maxsus tadqiq etilgan bo'lsa, xorijiy mamlakat huquqshunos tadqiqotchi-olimlaridan M.M.Mello, E.Bucher, T.A.Brennan, G.Leggatt, A.Xirshman, Nadiya E. Nedzel, Nikola V. Palmieri, Novoa R., J.Smith, Pablo Rodriguez del Pozo, Xiao -Yang Li, J.Kartrayt, S.R.Latham, R.R.Bovbjerg, D.M. Studdert, K.Walsh, DJ.Hunter va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlarining shartnomaviy huquqiy tartibga solish masalasi o'rganilgan.

Biroq, izlanishlar tahlilidan ayon bo'ladiki, mamlakatimizda tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlariga doir huquqiy va individual tartibga solish bilan bog'liq muammolar yechimlari to'liq qamrab olmaydi. Shuning uchun yurtimizda tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi tushunchasining mohiyati, ushbu shartnomaning asosiy va qo'shimcha shartlari, xususan masalaga oid takomillashgan ilmiy-nazariy va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish lozim.

Tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarini huquqiy tartibga solishning umumiy tavsifi doirasida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining huquqiy asoslari, tibbiy xizmat shartnomaviy huquqiy munosabatlarining genezisi va rivojlanish tendensiyalari, tibbiy xizmatlar ko'rsatish shartnomalarining qiyosiy huquqiy tahlili kabi masalalarni o'rganish muhim. O'zbekiston Respublikasi ahoni salomatligini saqlash sohasida bir qancha xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama aloqalarni olib bormoqda. Fikrimizni asoslash maqsadida, UNDP - BMTTD O'ZBEKISTON (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi) bergan rasmiy ma'lumotlarini keltiramiz. "Unda "Support to effective resilient and inclusive governance system for health" (Samarali, barqaror va inklyuziv rivojlanishga ko'maklashish Sog'liqni saqlashni boshqarish tizimlari) loyihasi 2021-2025 yillarga mo'ljallangan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Hamkorlik Dasturining 4-natijasiga erishishga hissa qo'shadi. Loyihaning asosiy faoliyati 2025-yilga kelib, eng zaif qatlamlar sifatli tibbiy xizmatlardan foydalanish, aholining barcha qatlamlarini, shu jumladan ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini dori vositalari va tibbiy buyumlar bilan ta'minlashning samarali tizimini yaratish imkoniyatini oshiradi"[8]. Respublikamizda juda ko'plab xalqaro tashkilotlar bilan fuqarolarning sog'lig'ini saqlashga qaratilgan ikki tomonlama hamda ko'p tomonlama manfaatli aloqalar mavjud.

Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining huquqiy asoslari qamrovida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlariga oid turli yondashuvlarni tahlil qilish asosida tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarining vujudga kelishi, turli davrlarda mavjud shakllari, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlariga nisbatan huquqni qo'llashning amaliyotga to'g'ri tatbiq etilishi bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish lozim.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ayrim shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish hamda fuqarolarning sog'lig'ini saqlash sohasidagi asosiy normalar hisoblangan – O'zbekiston Respublikasida mavjud amaldagi 10 (o'n)ga yaqin qonunlar, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30 (o'ttiz)ga yaqin qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 10 (o'n)ga yaqin normativ huquqiy hujjatlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirining 20 (yigirma)ga yaqin tibbiy xizmat ko'rsatish munosabatlari bilan bog'liq buyruqlari va boshqa sohaga oid vakolatli organlar tomonidan qabul qilingan tibbiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq normativ huquqiy hujjatlarni ilmiy nazariy tadqiq etish kerak.

Xususan, 1997-yil 25-apreldagi 415-I-sonli O'zbekiston Respublikasi "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida" qonuni hamda keyingi sohadagi o'zgarishlarni hisobga olib, ayni paytda yangi tahrirda qabul qilingan 2016-yil 4-yanvardagi O'RQ-399-sonli "O'zbekiston Respublikasining "Dori vositalari va farmatsevtika faoliyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida" qonuni, 1999-yil 19-avgustdagi 813-I-sonli O'zbekiston Respublikasining "Giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar to'g'risida"gi qonuni, 2002-yil 30 avgustdagi 402-II-sonli O'zbekiston Respublikasining "Qon va uning tarkibiy qismlari donorligi to'g'risida"gi qonuni, 2004-yil 29-apreldagi 615-II-sonli O'zbekiston Respublikasining "Qizil yarim oy va Qizil xoch timsollaridan foydalanish hamda ularni himoya qilish to'g'risida"gi qonuni, 2007-yil 3-maydagi O'RQ-97-sonli O'zbekiston Respublikasining "Yod yetishmasligi kasalliklari profilaktikasi to'g'risida"gi qonuni, 2013-yil 23-sentabrdagi O'RQ-353-sonli O'zbekiston Respublikasining "Odamning immunitet tanqisligi virusi keltirib chiqaradigan kasallik (OIV infeksiyasi) tarqalishiga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonuni, 2019-yil 12-martdagi O'RQ-528-sonli "Fuqarolarning reproduktiv salomatligini saqlash to'g'risida"gi qonuni, 2022-yil 12-maydagi O'RQ-768-sonli O'zbekiston Respublikasining "Inson a'zolari va to'qimalarining

transplantatsiyasi to‘g‘risida” [9]gi qonuni va boshqa qonunchilik hujjatlari bilan huquqiy tartibga solinadi.

Shuningdek, 2017-yil 1-apreldagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sog‘liqni saqlash sohasida xususiy sektorni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2017-yil 13-iyundagi PQ-3039-sonli “Toshkent shahri aholisiga birlamchi tibbiy-sanitariya yordami ko‘rsatishni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish hamda uning samaradorligi uchun rahbarlar va mutaxassislarning kasbiy mas‘uliyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 07-dekabrda PF-5590-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni, 2018-yil 12-oktabrda PQ-3968-sonli “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 6-apreldagi PQ-4290-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 30-maydagi PQ-4737-sonli “Nodavlat tibbiyot tashkilotlari tomonidan tez tibbiy yordam xizmatlarini ko‘rsatish uchun qo‘shimcha shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi qarori, 2020-yil 27-iyuldagi PQ-4790-sonli “O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi xizmati faoliyatini tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 5-maydagi PF-6221-sonli “Sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish va tibbiyot xodimlarining salohiyatini oshirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish to‘g‘risida”gi farmoni, 2021-yil 25-maydagi PQ-5124-sonli “Sog‘liqni saqlash sohasini kompleks rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori, 2021-yil 12-noyabrda PQ-6-son bilan qabul qilingan “Aholiga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish sifatini yaxshilash va sog‘liqni saqlash sohasida kadrlar salohiyatini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori hamda 2020-yil 6-fevraldagi ro‘yxat raqami 3217 bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirining “Yordamchi reproduktiv texnologiyalardan foydalanish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida” [10] buyrug‘i va boshqa qonun osti hujjatlar ham tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalasida muhim ahamiyatga ega.

Tibbiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha shartnomalar tasnifida bir qator olimlar va amaliyotchi mutaxassislar quyidagi fikr va mulohazalarini bildirib o‘tishadi:

N.A.Barinov haq evaziga xizmat ko‘rsatish shartnomasi xususida: “Fuqarolik huquqi fanida pullik tibbiy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnoma kengroq tushuncha - xizmatlarning ajralmas qismi sifatida ham qiziqish uyg‘otadi” [11] deb ta’kidlab, keyingi yillarda katta hajmda kirib kelayotgan tibbiy xizmatlarning turlarini nazarda tutadi.

“To‘lov evaziga tibbiy xizmatlar ko‘rsatish bo‘yicha uchinchi shaxs foydasiga shartnoma modeli bo‘yicha tuzilgan shartnoma bir qator xususiyatlarga ega. Birinchidan, bunday shartnomalar predmeti bo‘yicha shart kelishilgan deb e’tirof etilishi kerak va tuzilgan shartnoma, agar taraflar tibbiy xizmatlar turlarini va xizmatlarni oluvchilar sonini aniqlagan bo‘lsa, ikkinchidan, uchinchi shaxsga o‘z foydasiga majburiyatning bajarilishini talab qilish huquqini berishdan tashqari, unga tibbiy xizmat ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan harakatlarni bajarish bo‘yicha muayyan majburiyatlar va tibbiy xizmatlar yuklanadi” [12].

S.S.Shevchuk qarashlari bilan masalaga javob bersak: “Tibbiy xizmatlar ko‘rsatish to‘g‘risidagi shartnomaga ko‘ra, bir tomon, tibbiy xizmatlar ko‘rsatuvchi (tibbiy tashkilot yoki xususiy amaliyot shifokori) boshqa tomonni bemorga malakali tibbiy xizmat ko‘rsatishni o‘z zimmasiga oladi, bu ma’lum ishlarni bajarishda ifodalanadi. Bemorning sog‘lig‘ini saqlash va (yoki) tuzatish, tashxis, davolash usullari va bashorat qilingan natijalar to‘g‘risida ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish va tibbiy sirni saqlash uchun harakatlar yoki kasbiy xarakterdagi muayyan harakatlar va bemor pudratchining talablariga rioya qilishga majburdir” [13]. Tadqiqotchining yuqorida qayd qilgan fikrlariga qo‘shilamiz va qo‘shimcha tarzda quyidagilarni keltirishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Haq evaziga tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi ham boshqa shartnomalar kabi joriy qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi. Tibbiy xizmat ko‘rsatish shartnomasi o‘zida xizmatni bemor –mijoz hamda unga xizmat ko‘rsatuvchi tibbiy tashkilot o‘rtasida huquq va majburiyatlar masalasini, shuningdek, imtiyozlar va boshqa xususiyatlarni qamrab olinishi kerak.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ayrim shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishda AQSH, Rossiya Federatsiyasi, Buyuk Britaniya, Italiya va boshqa davlatlarning xorijiy tajribasi muhim. Bundan tashqari 2002-yil 15-noyabrda Rimda qabul qilingan "Bemorlarning huquqlari bo'yicha Evropa Xartiyasi"[14]da tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarida bemor – mijozning o'n to'rt turdagi huquq(lar)i: Tibbiy xizmat profilaktika choralari huquqi, tibbiy xizmatdan foydalanish huquqi, tibbiy xizmat haqida axborot huquqi, tibbiy xizmatga rozilik berish huquqi, tibbiy xizmatni erkin tanlash huquqi, shaxsiy daxlsizlik va tibbiy amaliyotni maxfiy, sir saqlanishi huquqi, bemorlarning vaqtini hurmat qilish huquqi, sifat standartlariga rioya qilish huquqi, xavfsizlik huquqi, innovatsiya huquqi, imkon qadar azob va og'riqlardan qochish huquqi, davolashga individual yondashish huquqi, shikoyat qilish huquqiga egaligi, kompensatsiya olish huquqi va boshqalar mavjud.

Tibbiy xizmat ko'rsatishning shakllari hisoblangan rekonstruktiv plastik jarrohlik amaliyoti, estetik plastik jarrohlik amaliyoti, jigar transplantatsiyasi, yurak va o'pka transplantatsiyasi, buyrak ko'chirib o'tkazish amaliyoti, EKV (sun'iy urug'lanish), YoRT (yordamchi reproduktiv texnologiyalar), surrogat onalik, yurak stendlash, stomatologik tibbiy xizmatlar, kosmetologik tibbiy xizmatlar, hijama, zuluk quyish va boshqa tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalari umumiy asosda mazmun nuqtai nazaridan bir xil mazmun ya'ni aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatish, tibbiy xizmat ko'rsatish davomida baxtsiz hodisa, tibbiy xatolar, diagnostik, profilaktik va tibbiy muolaja choralarini bemorga qo'llash chog'ida ehtiyotsizlik sabab sog'liqqa zarar yetkazish va boshqa holatlar uchraganda tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi orqali masalaga huquqiy yechim berish muhim.

Moskva davlat iqtisodiyot, statistika va informatika universiteti vakili N.V.Kosolapovaning "Tibbiy xizmat: huquqiy jihatlar" maqolasida tibbiy xizmat ko'rsatish masalasini MDH davlatlari uchun umumiy quyidagi xususiyatlari qayd qilinadi: "O'tgan asrning 90-yillarida aholiga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq holda yuzaga keladigan munosabatlarning huquqiy tabiati, majburiy tibbiy sug'urta (OMC) va ixtiyoriy tibbiy sug'urta (DMS) tizimlarining joriy etilishi, pullik tibbiy xizmatlarning (PMU) tarqalishi bilan birga mahalliy sog'liqni saqlashni isloh qilish tizimi o'zgardi"[15]. Tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi umumiy ahamiyat bo'yicha, haq evaziga xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'lib, mazkur shartnomaning har bir tarafi uchun o'zini himoya qiladigan qonunchilik huquqi mazkur tartibda amalga oshiriladi. Ushbu tartibning maqsadi – shartnomaning ikki tarafini kelishgan shartlarga rioya etishi va nizolarni barqaror ravishda hal etishni nazarda tutadi.

Mazkur masalada xorij tajribasiga yuzlansak, Buyuk Britaniyada tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarini huquqiy tartibga solish maqsadida 2023-yil 24 –aprelda "Standart umumiy tibbiyot xizmat ko'rsatish shartnomasi" – "Standard General Medical Services Contract"[16] (Classification: Official Publication reference: PR00220) imzolandi. E'tiborli tomoni mazkur normada barcha klassik hamda zamonaviy tibbiy xizmat ko'rsatish usullari namunaviy shartnoma, taraflarning huquq va erkinliklari qamrab olingan. Zamonaviy tibbiyotning shiddat bilan rivojlanishi mamlakatimizda ham mazkur sohada tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomalarini joriy qonunchilik hujjatlari va boshqa normalar bilan huquqiy tartibga solish zaruriyatini vujudga keltiradi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha ayrim shartnomaviy munosabatlarni fuqarolik huquqiy tartibga solishni takomillashtirish masalalarini tadqiq etgan holda quyidagi xulosalarga kelindi:

Birinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlar to'g'risidagi qonunchilikni tizimlashtirish va unifikatsiya qilish maqsadga muvofiq. Bunda Sog'liqni saqlash kodeksining qabul qilinishi hamda mazkur kodeks bilan Fuqarolik kodeksi o'rtasida aniq nisbat belgilanishi kerak. Sog'liqni saqlash kodeksida, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomasining subyektlari, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarida ushbu shartnomaning asosiy va qo'shimcha shartlari, tibbiy tashkilot tomonidan ko'rsatilgan tibbiy xizmatning sifati, tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilot hamda mijoz (bemor)ning huquq va majburiyatlari bag'ishlangan boblar bo'lishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Ikkinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarini takomillashtirish, mamlakatimizda aholining keng qatlamiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar

xususan, inson a'zolarining transplantatsiyasi, yordamchi reproduktiv texnologiyalar vositasida tibbiy xizmat ko'rsatish, kosmetologik tibbiy xizmat ko'rsatish, stomatologik tibbiy xizmatlar va boshqa tibbiy xizmatlar sifatini rivojlangan davlatlar darajasiga olib chiqish va bu orqali O'zbekistonda tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarda shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini buzilishiga chek qo'yish nuqtayi nazaridan yondashiladi. Shuningdek, bu masalada Germaniyada mavjud tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma bilan majburiy sug'urta parallel tarzda ishlatilishiga oid tajribadan unumli foydalanish kerak. Bundan tashqari AQShda mavjud Amerika kasalxonalar assotsiatsiyasi vakolatiga kiruvchi tibbiy xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlarning moddiy texnik bazasi ko'rsatilayotgan tibbiy xizmat uchun talabga javob berishini monitoring qilish amaliyoti tajribasini qo'llash mumkin. Yuqorida qayd etilgan davlatlarning tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha tajribalaridan foydalanish mamlakatimizda tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarini shakli va sifatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlarida mazkur shartnoma taraflarining huquq va majburiyatlarini ta'minlash uchun AQSh va Yevropa mamlakatlari tajribasidan foydalanish taklif qilinadi. Jumladan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlariga oid barcha munosabatlarni raqamlashtirish, reestrda ro'yxatidan o'tkazish yo'li bilan tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomasi taraflarining huquq va majburiyatlarini samarali ta'minlash nazarda tutiladi.

To'rtinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnomaviy munosabatlari bo'yicha sud amaliyoti mavjud nizoli vaziyatlar o'rganilib, mazkur tahliliy o'rganishlar natijasi hamda nizoli sud amaliyotlariga huquqiy yechim berish maqsadida norma ijodkorligiga taklif va tavsiyalar, xususan namuna tarzida "YYY tibbiy xizmat ko'rsatish bo'yicha shartnoma"si loyihasi ishlab chiqildi.

Beshinchidan, tibbiy xizmat ko'rsatish shartnomaviy munosabatlarida huquqiy javobgarlikni belgilashda fuqarolik huquqiy javobgarlik yoki jinoiy javobgarlikni belgilash, ular o'rtasida huquqiy chegarani aniqlash masalasida ilmiy mulohazalar tahliliy o'rganildi.

Iqtiboslar/Сноски/References:

1. <https://www.organdonor.gov/learn/organ-donation-statistics>
2. Oral Health Data. Centers for Disease Control and Prevention. Accessed 5/22/2024.
3. <https://m.kun.uz/news/2019/03/13/ozbekistonda-buyrak-kasalligi-uchun-xizmat-korsatish-qay-darajada?q=%2Fuz%2Fnews%2F2019%2F03%2F13%2Fozbekistonda-buyrak-kasalligi-uchun-xizmat-korsatish-qay-darajada>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. 2023-yil 11-sentabr PF-158-son. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 12.09.2023-y., 06/23/158/0694-son; 29.12.2023-y., 06/23/214/0984-son (Decree of the President of the Republic of Uzbekistan on the strategy "Uzbekistan - 2030". September 11, 2023 No. PF-158. National database of legislative information, 12.09.2023, No. 06/23/158/0694; 29.12.2023, No. 06/23/214/0984)
5. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 03/22/800/0990-son; 21.01.2023-y., 03/23/815/0044-son; 31.05.2024-y., 03/24/928/0384-son; 09.09.2024-y., 03/24/957/0689-son; 21.09.2024-y., 03/24/963/0735-son.(National database of legislative information, No. 03/22/800/0990; 01.21.2023, No. 03/23/815/0044; 31.05.2024, No. 03/24/928/0384; 09.09.2024, No. 03/24/957/0689; 09/21/2024, No. 03/24/963/0735)
6. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 12.03.2019-y., 03/19/528/2741-son; 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son.(National database of legal documents, 12.03.2019, No. 03/19/528/2741; 04/21/2021, No. 03/21/683/0375)
7. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.07.2018-y., 07/18/3846/1502-son; 28.09.2020-y., 06/20/6075/1330-son. (National database of legal documents, 07/18/3846/1502, dated 07/13/2018; 09/28/2020, No. 06/20/6075/1330)
8. <https://www.undp.org/uz/uzbekistan/projects/sogliqni-saqlashni-boshqarish-tizimlarida-samarali-barqaror-va-inklyuziv-rivojlantirishga-komaklashish>

9. <https://www.lex.uz/uz/>
10. <https://www.lex.uz/uz/>
11. Н.А.Баринов. Услуги. Изд. 2-е, дополненное. Саратов: Надежда, 2003. – 224 С.; Шаблова Е.Г. Гражданско-правовое регулирование отношений возмездного оказания услуг: дис... д.ю.н. Екатеринбург, 2003. 363 с. (N.A.Barinov. Services. 2nd edition, supplemented. Saratov: Nadezhda, 2003. – 224 p.; Shablova E.G. Civil-law regulation of relations of provision of paid services: diss... Doctor of Law. Ekaterinburg, 2003. P.363.)
12. Е.Е.Васильева. Договор возмездного оказания медицинских услуг по законодательству Российской Федерации. 12.00.03 - гражданское право; предпринимательское право; семейное право; международное частное право. Автореферат диссертации на соискание ученой степени кандидата юридических наук. Томск 2004. С - 7.(E.E. Vasilyeva. Contract for the provision of medical services for a fee under the legislation of the Russian Federation. 12.00.03 - civil law; business law; family law; international private law. Abstract of a dissertation for the degree of candidate of legal sciences. Tomsk 2004. P. 7)
13. Н.В.Крысанова 2010. 02. 025. Шевчук С. С. Основные проблемы современного российского гражданского права. - Ставрополь: НОУ ВПО СКСИ, 2010. - 384 с // Социальные и гуманитарные науки. Отечественная и зарубежная литература. Сер. 4, Государство и право: Реферативный журнал. 2012. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/2010-02-025-shevchuk-s-s-osnovnye-problemy-sovremennogo-rossiyskogo-grazhdanskogo-prava-stavropol-nou-vpo-sksi-2010-384-s>. (N.V. Krysanova 2010. 02. 025. Shevchuk S.S. Main problems of modern Russian civil law. - Stavropol: NOU VPO SKSI, 2010. - 384 p // Social and humanitarian sciences. Domestic and foreign literature. Series. 4, State and Law: Abstract journal. 2012. No. 2.)
14. <https://www.activecitizenship.net/multimedia/files/charter-of-rights/the-charter-in-several-languages/leaflet/Russia-Front-and-Back.pdf>
15. Н.В.Косолапова. Медицинская услуга: правовые аспекты // Социальные аспекты здоровья населения. 2014. №2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskaya-usluga-pravovye-aspekty>. (Medical service: legal aspects // Social aspects of population health. 2014. No. 2. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meditsinskaya-usluga-pravovye-aspekty>)
16. <https://www.england.nhs.uk/wp-content/uploads/2023/04/PRN00220-standard-general-medical-services-contract.pdf>



ISSN 2181-9130

Doi Journal 10.26739/2181-9130

ҲУҚУҚИЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

9 ЖИЛД, 12 СОН

ЖУРНАЛ ПРАВОВЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 9, НОМЕР 12

JOURNAL OF LAW RESEARCH

VOLUME 9, ISSUE 12

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,

Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz

ООО Тадқиқот город Ташкент,

улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz

Тел: (+998-94) 404-0000